TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.13/05.05.2023.T.162.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS FILIALI

KENJAYEV XAMDAM BAZARBAYEVICH

KALITLI KOMPONENTLARDAN FOYDALANGAN HOLDA BIR JINSLI HUJJATLARDAN MA'LUMOTLARNI AJRATIB OLISHNING ALGORITMIK VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus-2024

UDK: 004.42:004.91:004.62

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on technical sciences

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.13/05.05.2023.T.162.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS FILIALI

KENJAYEV XAMDAM BAZARBAYEVICH

KALITLI KOMPONENTLARDAN FOYDALANGAN HOLDA BIR JINSLI HUJJATLARDAN MA'LUMOTLARNI AJRATIB OLISHNING ALGORITMIK VA DASTURIY MAJMUASI

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Nukus-2024

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.2.PhD/T.3636 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tatunf.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nishanov Axram Xasanovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Djumanov Jamoljon Xudayqulovich** texnika fanlari doktori, professor
	Raximboev Xikmat Jumanazarovich texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali huzuridagi PhD.13/05.05.2023.T.162.01. Ilmiy kengashning 2024-yil "26" iyul soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko‘chasi, 74-uy. Tel.: (861) 222-49-10,e-mail: tatunf@tatunf.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqam bilan ro‘yxatga olingan.). (Manzil: 230100, Nukus shahri, A.Dosnazarov ko‘chasi, 74-uy. Tel.: (861) 222-49-10).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "15" iyul da tarqatildi.
(2024-yil "12" iyul dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi.)

B.T.Kaipbergenov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, texnika fanlar doktori, professor

R.I.Oteniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlar doktori, professor

K.K.Seitnazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda AKT va Internet tarmog‘ining rivojlanishi natijasida insonlar extiyojini qanoatlandiruvchi elektron shaklga o‘tkizilayotgan qog‘oz shaklidagi axborot man’balri, xususan, hujjatlar, gazeta va jurnal kabi nashrlar o‘z o‘rnida katta hajm va oqimdagi axborotlarni boshqarish, qayta ishlash va foydalanuvchiga taqdim etish masalalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, IT sohasida ilg‘or bo‘lgan AQSh, Angliya, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya kabi davlatlarning yetakchi kompaniyalar va olimlari olib borayotgan tadqiqotlarida tabiiy tildagi matnlarni sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va katta ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida qayta ishlashning zamonaviy yechimlarini amaliyotga joriy qilish belgilangan. Bu borada, jumladan, kalit so‘zlar orqali bir jinsli to‘plam hujjatlarining matnlarini tabiiy tilga bog‘liq qayta ishlash, aniq ma’lumotlarni ajratib olish va hujjatlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan maxsus tizim, dasturiy vositalar va algoritmlari tabora takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda katta auditoriyali olimlar tomonidan o‘xshash format yoki tuzilishga ega bo‘lgan hujjatlar tarkibidan ulardagi alohida elementlarni aniqlash va ajratib olish jarayoni ustida juda muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo’nalishda, jumladan, bir xilligi format va tuzilmadagi hujjatlar bazasidan ularning qiymatli axborotlarini umumlashtirish va katta hujjatning mazmunini ma’nosini shakllantiruvchi algorotmik-matematik ta’minotlarini ishlab chiqish bo’yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bunga ularni yagona formatga aylantirish va ahamiyatsiz ma’lumot-larni o‘chirish yoki xatolarni tuzatishlar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda hujjatdagi tegishli bo‘limning boshlanishini ko‘rsatadigan maxsus iboralar yoki formatlarni izlash, tabiiy tilda berilgan matnlarni qayta ishlash, murakkab hujjatlarda kontekstni tushunish, ma’no chiqarish va matnning turli bo‘limlari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, algoritmlar, ayniqsa murakkab yoki turli xil ma’lumotlar to‘plamlarida, vaqt o‘tishi bilan ularning aniqligini oshirish uchun mashinali o‘qitishdan foydalanish, har bir ekstraksiya jarayonidan o‘rganashlar va tegishli ma’lumotlarni aniqlashlar, olingandan so‘ng, ma’lumotlarni tahlil qilish yoki boshqa tizimlarga, masalan, ma’lumotlar bazalari yoki ma’lumotlarni tahlil qilish vositalariga integratsiya qilish uchun mos formatga o‘tkazish va ekstraksiya tizimlari haqiqatan ham samarali bo‘lishi uchun mavjud ma’lumotlar bazalari, kontentni boshqarish tizimlari yoki biznes ish oqimlari bilan integratsiya qilinishi borasida yetarlicha ilmiy tadqiqotlar va isloxotlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv organlarida hujjatlar oqimini raqamli formatda boshqarish va tizimli qayta ishlash sohasida “…elektron hujjat almashinuvi … operatsion jarayonlarni raqamlashtirish...”[1], “…ta’lim jarayonini avtomatlashtirish bo‘yicha axborot tizimi … elektron

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni.

shakllar…”, “… Xalq ta’limi vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatining boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish…”[2] kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o‘zbek tilidagi matnli hujjatlarni qayta ishlash, xususan bir xil andozali hujjatlarni mashina yordamida umumlashtirish va avtomatik hisobotlarni tayyorlash borasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va dasturiy majmualarini ishlab chiqsh muhim masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi (2015) va “Jismoniy va yurdidik shaxslarning murojaatlar to‘g‘risida”gi (2017) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi 7-son “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risida namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” va 2018-yil 7-maydagi 341-son “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muyaan xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlani-shining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kalitli komponentlardan foydalangan holda bir jinsli hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olishning algoritmik va dasturiy majmuasi kabi masalalarni xal qilishda bir qator xorijiy olimlar hissa qo’shganlar, jumladan, A.O.Shigarov, I.V.Bichkov, S.O.Sheremeteva, A.D.Ustalov, E.V.Stojok, A.E.Xmelnov, E.Yu.Xrustapev, A.V.Solovev, T.G.Penkova, H.H. Chen, S.C.Tsai, R.Campos, V.Mangaravite, A.Pasquali, A.Jorge, C.Nunes, A.Jatowt, Z.Jingshenglar[3] va boshqalar.

Kalitli komponentlardan foydalangan holda bir jinsli hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga O‘zbekistonni taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bulardan:

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmon.

[3] Christopher Manning, u Stenford universiteti bilan aloqador va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida ko‘p ish qilgan. Uning “Tilni statistik tabiiy qayta ishlash asoslari” kitobi juda mashhur hisoblanadi; Jurafsky & Martin, ularning ‘Nutq va tilni qayta ishlash” kitobi butun dunyo bo‘ylab tarqalgan; Andrew Ng, uning asosiy ishi chuqur o‘qitish va uni turli sohalarda qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lsada, mashinali o‘qitish sohasidagi hissasi ma’lumot olish usullariga tangensial ta’sir ko‘rsatdi; Jacob Devlin, Sebastian Riedel, Yoshua Bengio, Geoffrey Hinton, and Yann Le Chun, hozirda ular matnlardan ma’lumot olishda keng qo‘llaniladigan chuqur o‘qitish bo‘yicha tanilgan olimlardan hisoblanishadi.

M.M.Kamilov, Sh.X.Fazilov, R.H.Hamdamov, N.S.Mamatov, S.S.Radjabov, M.X.Xudoyberdiev, A.Hamroev, A.X.Nishanov va boshqalar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida kalitli komponentlardan foydalangan holda bir jinsli hujjatlardan ma'lumotlarni ajratib olishning algoritmik va dasturiy majmuasini amaliyotda qo‘llash masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi. Shu bilan birga, kalitli komponentlardan foydalangan holda bir jinsli hujjatlardan ma'lumotlarni ajratib olishning algoritmik va dasturiy majmuasi yo‘nalishining nazariy va amaliy muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №22/19-F “Milliy elektron hukumat muhiti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish “iGov-maslahat-muhokama-monitoring tizimi”ni ishlab chiqish va uning tadbiqi” (2019-2020) va Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №333-U “O‘zbekiston badiiy ta'lim tizimida “Onlayn muzey” elektron galeriyasini yaratish” (2021-2022) hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filialining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №IL-392103072 “Chorvachilik komplekslarini elektron boshqarishning mobil ilovasini yaratish” (2022-2023) loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Bir xil tuzulmaga ega matnli hujjatlardan kalit so‘zlar orqali muhim axborot birliklarini ajratib olishning va bu ma'lumotlardan ehtiyojga ko‘ra umumlashtiruvchi hisobotlar shakllantirishning algoritmik va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kalit so‘zlar asosida hujjat axborat birliklarini umumlashtirish masalaning matematik modeli va dasturiy majmua infratuzilmasini ishlab chiqish;

elektron hujjat andozalari, kalit so‘zlar va bilimlar bazasini loyihalash;

elektron hujjatlar andozalari, fragmentlari, kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtitirish uslubiyati va algoritmik ta'minotini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan algoritmlar kesimida amaliy masalalarni yechishga ko‘mak beruvchi dasturiy majmuasi ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida katta hajmdagi axborot resurslari, jumladan matnli hujjatlar to‘plamidan foydalanuvchi ehtiyojini qanoatlandiruvchi zarur axborotlarni qidirish, tahlil qilish va ularni umumlashtirishga asoslangan yondashuvlar olingan.

Tadqiqotning predmeti elektron hujjat aylanish tizimlaridan chiquvchi so‘rov hujjatga kelgan ko‘p sonli hujjatlarni umumlashtirish yoki aralash matnli hujjatlar to‘plamidan belgilangan andoza va kalit so‘zlarga muvofiq zarur axborot birliklarini chiqarib olish algoritmlari va qaror qabul qilishga ko‘maklashuvchi dasturiy majmuadan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish, katta hajmli ma’lumotlarga ishlov berish va timsollarni tanib olish nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektron hujjatning fragment andozalari, kalit so‘zlar va bilimlar bazasi asosida matnlarni qayta ishlash usullari loyhalashtirilgan;

hujjatlardan toifali fragment bloklarini aniqlash va bu bloklardan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish jarayonining matematik modeli ishlab chiqilgan;

o‘zbek tilida ifodalangan matnli hujjatlarni fragmentlash, fragment matnidan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtirishning qoidalar bazasi ishlab chiqilgan;

bir jinsli elektron hujjatlarning fragment matnidan qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtirish qoidalar bazasi asosida qiymatli axborotlarni chiqarib olish va umumlashtirish algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

katta hajmdagi hujjatlar bilan shug‘ullanadigan sohalarda hujjatlarni umumlashtirish, qaror qabul qilish, tahliliy hisobot jarayonlarni yaxshilash mumkinligi asoslangan;

avtomatlashtirilgan tizim qo‘lda ishlov berishga qaraganda katta hajmdagi hujjatlarni boshqarishi, ma’lumotlarni muntazam va tez qayta ishlovchi tashkilotlar ish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan;

hujjatlardan asosiy tarkibiy qismlarni samarali ajratib olish orqali tegishli ma’lumotlar yanada qulayroq bo‘lib, bilimlarni boshqarish va ma’lumotlarni qidirish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligi asoslangan;

bunday tizimlar muayyan sohalar yoki hujjatlar turlariga moslashtirilishi mumkin, bu ularni turli ilovalar uchun ko‘p qirrali vositalarga aylantiradi. Masalan, ular sog‘liqni saqlash sohasidagi bemor ma’lumotlarini yoki bankdagi tranzaksiya tafsilotlarini olish uchun moslashtirilishi mumkinligi asoslangan;

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bir xil tipdagi hujjatlardan ma’lumot olish uchun algoritmik va dasturiy majmua turli sektorlarda ma’lumotlarni qayta ishlash samaradorligini, aniqligini va tezligini oshirish, shu bilan birga turli ehtiyojlarni qondirish uchun masshtablash va moslashtirish imkoniyatlarini taklif qilish qobiliyati tufayli juda katta amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o‘z aksini topgan umumnazariy xulosalar, o‘xshash tuzilishdagi hujjatlar to‘plamidan tegishli ma’lumotlarni avtomatik ravishda ajratib oladigan tizimning ishlash aniqligi, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash, bir xil tipli hujjat ma’lumotlarini umumlashtirish, ma’lumotlarni qayta ishlash, algoritm loyihalash ishlab chiqish, algoritmlarni sinab ko‘rish, dasturiy ta’minotni kodlashning eng yaxshi amaliyotlari, modullilik va masshtablilik, tekshirish, testlash, xatolarni tahlil qilish va takomillashtirish kabi faktorlar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘xshash hujjatlar to‘plamidan tabiiy tildagi matnlardan asosiy komponentlarni aniqlash va tahlil qilish orqali tegishli ma’lumotlarni chiqarib olish, mashinali o‘qitish usullarini takomillashtirish, taqqoslash, bir xil hujjatlar turlarni umumlashtirish samaradorligi va aniqlik mezonlarni bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma’lumotlarni olish jarayonlarini avtomatlashtirish, axborotni qidirishning aniqligini oshirish, turli sohalarda qo‘llanilishi, bilimlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish, kontent tahlilini osonlashtirish, katta miqyosdagi ma’lumotlarni tahlil qilishni yoqish, masshtablilik va samaradorlik, moslashuvchanlik, hisoblash tilshunosligi sohasida hissasi va soha mutaxassislariga zamonaviy ko‘mak beruvchi dasturiy tizim ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqotda ishlab chiqilgan algoritmlar asosida yaratilgan “ARS-Uz” dasturiy majmua asosida:

o‘zbek tilida ifodalangan matnli hujjatlarini fragmentlash, fragment matnidan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtirishning qoidalar bazasi asosida ishlab chiqilgan axborot tizim Ellikqal’a tumani Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga joriy etildi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023 yil 02 noyabrdagi №01-03/4034-son ma’lumotnomasi). Natijada tashkilotning yuqori hamda quyi bo‘g‘inidagi tashkilotlaridan keladigan turli ko‘rinishdagi axborotlar (xat, buyruq va hokazolar) hamda fuqoralar murojaatlarini tahlil qilish va tezkorlikda javob qaytarish kabi jarayonlar uchun ketadigan vaqtni 21% ga qisqartirgan. Bu esa ish samaradorligini 23% ga oshirish imkonini bergan;

elektron hujjat tuzilishi va fragment andozalari, kalit so‘zlar va bilimlar bazasini loyhalashtirish va hujjatlardan toifali fragment bloklarini aniqlash hamda bu blokdan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish jarayoni matematik modeli qurish asosida yaratilgan dasturiy majmuasi Beruniy tumani Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga joriy etildi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023 yil 02 noyabrdagi №01-03/4034-son ma’lumotnomasi). Natijada tashkilotga keladigan elektron hujjatlardan toifali fragment bloklarini aniqlash va bu blokdan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish jarayoni avtomatlashtirilgan holda ishlash imkonini bergan. Bu esa soha xodimlarini ish yuklama hajmini 17% ga qisqartirgan hamda keladigan hujjatlarga qayta ishlov berish asosida javob qaytarish tezkorligini oshirish orqali ish samaradorligini 19% ga oshirish imkonini bergan;

elektron hujjatlarni kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtirish algoritmi asosida yaratilgan dasturiy majmuasi Amudaryo tumani Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga joriy etildi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023 yil 02 noyabrdagi №01-03/4034-son ma’lumotnomasi). Natijasida tashkilot xodimlari uchun 7 xil kategoriyaga tegishli kalit so‘zlar bazasi asosida hujjatlarni qabul qilib olish va avtomatik tahlil qilish jarayonnini bajarish hamda talab asosida har bir hujjatdagi

qiymatli ma’lumotlarni ajratib berish kabi imkoniyatlarni yaratgan. Bu esa vaqtni 22% ga qisqartirish orqali ish samaradorligini 24% ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy hamda amaliy natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy–texnik hamda ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha asosiy natijalar 23 ta ilmiy ishlarda e’lon qilingan bo‘lib, ulardan 8 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 14 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarga qayd qilish guvohnomalari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk Agentligidan olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot metodlari va ilmiy farazi, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar va ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi va ishning sinovdan o‘tishi, natijalarning e’lon qilinganligi, foydalanilgan model va algoritmlar, qo‘llanilish sohasi va amalga oshirish bosqichlari qisqacha bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olishda algoritmik yondashuvlar**” deb nomlangan bo‘lib, u hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olish, ya’ni, kalit so‘zlarni shakllantirish, matnlarni o‘zaro o‘xshashliklarini baholash algoritmlari va usullari tahlili keltirilgan. Shuningdek, matnli ma’lumotlardan obyektni nomini tanib olish yondashuvlari va hujjatlardan jadvallarni ajratib olish hamda matnlarni umumlashtirining avtomatlashgan usullari tahlili taqdim etilgan.

Hujjatlardan kalit so‘zlarni ajratib olish algoritmlari va matnlar o‘xshashligini baholash usullari tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), tadqiqotlarda kalit so‘zlarni (KS) shakllantirish va ular asosida matnlarni umumlashtirish, matn tasnifi va klasterlash masalalarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hujjatlardan kalit so‘zlarni ajratib olish algoritmlari matnlarning o‘zaro o‘xshashligini o‘lchash usullar tasnifi, inson va algoritm kalit so‘zlari o‘xshashligini baholash usullari tahlili keltirilgan.

Shuningdek, keyingi bandda matnli ma’lumotlrdan nomlangan obyektni tanib olish (NER) yondashuvi, qoidaga asoslangan nomlangan obyektni tanib olish (Named Entity Recognation-NER) asoslari va mavjud usullari qiyosiy tahlil qilingan va qoidaga asoslangan NER ning avzalliklari keltirib o‘tilgan. NER - bu ma’lum

ma’lumotlar to‘plami yoki korpusdan shaxs ismlari, tashkilotlar, vaqt, joylashuv kabi nomlangan obyektlarni aniqlash masalasi bilan shug‘ullanadi. Nomlangan obyektlar, predmet soha obyektlari (tibbiy, oziq-ovqat), korpusda belgilangan nomli obyektlar kabilarni o‘z ichiga oladi. Masalan:

Matn:
Xurshid 2023-yil Oksfordda o‘qish uchun 25000$ grant yutib oldi.
Chiqish:
Xurshid[Odam] 2023-yil[Vaqt] Oksfordda [Tashkilot] o‘qish uchun 25000$ [Miqdor son] grant yutib oldi.

NERning asosiy uchta usuli mavjud: lug‘atga asoslangan yondashuv, o‘qitishga asoslangan yondashuv (learning based) va qoidalarga asoslangan yondashuv (rule-based).



1-rasm. Qoidalarga asoslangan NER yordamida miqdorlarni aniqlash jarayoni.

Lug‘atga asoslangan NER hujjatlardan ma’lumot olish uchun ishlatiladi, chunki u tanib olingan termlar bo‘yicha ID ma’lumotlarini taqdim etishi mumkin. Ushbu usul termlarni moslashtirish orqali nomlangan obyektlarni aniqlaydi. Lug‘atga asoslangan yondashuvlar noto‘g‘ri ijobiy tanib olish va yangi nashr etilgan nomlarni qamrab oladigan yagona resursning yo‘qligi kabi cheklovlarga ega. Bu usul yuqori aniqlik darajasiga ega bo‘lsada, lekin u faqat lug‘atga kiritilgan NERni taniy oladi.

Ushbu tizimlar ba’zi cheklovlarga ega bo‘lsada, ular qimmat protativ emas va predmet sohaga bog‘liq. Bunda predmet soha bilimlari va dasturlash qobiliyatlari uchun inson tajribasi talab qilinadi. Qoidalarga asoslangan NER tizimlari faqat bitta predmet soha uchun mo‘ljallangan va boshqa predmet sohalarga ko‘chirilmaydi.

Qoidalarga asoslangan NERning afzallik jihati shundan iboratki, ma’lum soha uchun tabiiy tildagi har bir o‘zgachaliklarga ekspertlar qoidalar yaratishi mumkin.

NER yordamida hujjatdagi matnlardan nomlangan obyektlarni ajratib olish mumkin bo‘lsada, uni hujjatdagi jadvalli ma’lumotlarga qo‘llab bo‘lmaydi. Shu sababli hujjatdagi jadvallardan ma’lumotlarni ajratib olishning jadval modeli keying bo‘limda tadqiq qilinadi.

Taklif etilayotgan jadval modeli mantiqiy xulosa chiqarish jarayonida jadvallar haqidagi faktlarni taqdim etishga mo‘ljallangan. Model ikki darajadan iborat: jismoniy va mantiqiy.

Jismoniy daraja yacheykalarning geometrik pozitsiyalarini, uslublarini (grafik formatlash) va mazmunini tavsiflaydi. Bu daraja $T_p = (S_r; S_c; C)$ quyidagi

to‘plamlardan iborat: S_r qatorlar to‘plami va S_c - ustunlar to‘plami; $C - c = (c'; p; G)$ quyidagilarni o‘z ichiga olgan yacheykalar to‘plamidir: c' - kontent (qiymat); $p = (c_l; r_t; c_r; r_b)$ - S_r qatorlar va S_c ustunlaridagi koordinatalar (c_l - chap ustun, r_t - yuqori qator, c_r – o‘ng ustun va r_b - pastki qator); G - uslub sozlamalari to‘plami (shrift ko‘rsatkichlari, ranglar, matnni tekislash, chegara uslublar va boshqalar);

Mantiqiy daraja semantik munosabatlarni taqdim etadi (ya’ni, yacheyka- rol, sarlavha-qiymat, sarlavha-sarlavha va sarlavha-o‘lcham juftlari). Bu daraja $T_l = (D; L_r; L_c; E)$ quyidagi to‘plamlardan iborat: $D = \{D_i\}$ - qayta ishlangan jadvalda keltirilgan o‘lchamlar to‘plami. Ularning har biri $D_i = \{d_j\}$ o‘lchov qiymatlari to‘plami; L_r - qator sarlavhalar daraxti va L_c - ustun sarlavhalar daraxti. Bu daraxtlar ularning sarlavhalari orasidagi munosabatlarni taqdim etadi. Har bir sarlavha $l = (l')$ kontentga ega, l' bu D_i o‘lchovlarining qiymati emas: $l' \notin \bigcup D_i$. $E - e = (e'; D'; L')$ yozuvlar to‘plami: e' - mazmun; D' - bu yozuv bilan bog‘liq D_i o‘lchov qiymatlari to‘plami; L' - bu yozuv bilan bog‘liq L_r va L_c daraxtlaridan olingan sarlavhalar to‘plami.

Hujjatlardan jadvallarni olishning interpretatsiyalash bosqichida jadvallarni tahlil qilish va interpretatsiyalash uchun CRL (Cells Rule Language) deb nomlangan rasmiy qoidalar tili taklif qilingan. Bunda ixtiyoriy yarim strukturalangan jadvallardan ma’lumotlarni ajratib olish va ularni standart ETL (Extract, Transform, Load) vositalari yordamida ma’lumotlar bazasiga yuklash masalasi ko‘rib chiqilgan. Strukturalanmagan jadval ma’lumotlarini interpretatsiyalash uchun taklif etilayotgan jarayon sxemasi 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm. Jadvallarni tahlil qilish va interpretatsiyalash qoidalarini bajarish orqali strukturalanmagan jadval ma’lumotlarini interpretatsiyalash sxemasi.

Jadvalni ajratib olish tuzilmagan ma’lumotlarni tuzilmali va amalda bo‘lgan formatga aylantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ma’lumotlarni yanada qulayroq, tahlil qilinadigan va turli sohalar va turli ilovalar uchun muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda hujjatlardan jadvallarni chiqarish uchun bir nechta dasturiy ta’minot vositalar amaliyotga joriy etilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Bir jinsli hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olish usul va algoritmlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda axborot tizimlari orqali hujjatlarni qayta ishlash yo‘nalishlari (dastur orqali hujjatni avtomat generatsiya qilish hamda hujjatlarni avtomatik tizimga o‘qitish) va ularda ma’lumotlarni taqdim etish usullari tadqiq etiladi. Jumladan, andozali hujjatlar, hujjat tarkibi va uni fragmentlash asoslari, hujjatlarni tizim ma’lumotlar bazasi yoki manba jadvalli asosida generatsiya qilish hamda tashqi manba elektron hujjatlarini mashina yordamida o‘qitish usul va algoritmlari batafsil qaraladi. Tadqiqot natijasida muammoni yechishga yo‘naltirilgan usullar taklif etiladi. Demak, mazkur ishda uchala masala (axborot taqdim etilish, avtomat generatsiya va hujjatlarni tizimga o‘qitish) bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari batafsil tahlil qilinadi va universal hujjatlar bilan ishlovchi tizimga talablar taklif etiladi.

Tadqiqotda asosiy masala bo‘lib matnli hujjatlar to‘plamidan tegishli axborot birliklarini chiqarib olish va yakuniy hujjatga ularni umumlashtirish masalasi qaraladi. Avtomatik matnni umumlashtirish (ATS) tizimining asosiy maqsadi - kirish hujjatining asosiy mazmunini o‘z ichiga olgan qisqa ma’lumotni kamroq joyda va takrorlanishni minimal darajada ushlab turishdir.



3-rasm. (a) bitta hujjatli yoki (b) ko‘p hujjatli avtomatik matn umumlashtiruvchi.



4-rasm. ATS tizimlarining tasnifi.

ATS tizimlarida ko‘plab tasniflar mavjud. Ushbu tasniflar haqida batafsil tizimli tahlil etilgan. ATS tizimlarini asosan quyidagi mezonlarga qarab tasniflash mumkin (4-rasm).

Umumlashtirish tasniflashning asosiysi uning yondashuvi (ekstraktiv, mavhum yoki gibrid) bo‘yicha bo‘ladi. ekstraktiv matnni umumlashtirish yondashuvi kirish hujjat(lar)idagi eng muhim gaplarni tanlaydi va bu tanlangan gaplar xulosada birlashtiriladi. Gibrid matnni umumlashtirish yondashuvi ekstraktiv va mavhum yondashuvlarning kombinatsiyasi (5- rasm).



5-rasm. Matnni umumlashtirish yondashuvlarining arxitekturasi.

ATS tizimlarini loyihalash va amalga oshirishda turli komponenta va usullar foydalaniladi.Umumiy holda hujjat quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

$$f(\alpha, \beta), \qquad (1)$$

bunda α – hujjat parametrlari matritsasi, β – hujjat strukturasini tasvirlash matritsasi.

Hujjat $I \times k$ o‘lchamidagi α turli parametrlarning qiymatlar jadvali bo‘lib hisoblanadi:

$$\alpha = \begin{bmatrix} p_{1,1} & \cdots & p_{1,I} \\ \vdots & \ddots & \vdots \\ p_{k,1} & \cdots & p_{k,I} \end{bmatrix}, \qquad (2)$$

bu yerda p parametr qiymati.

Hujjatning $m \times n$ o‘lchamidagi β ma’lum tartibda tartiblangan hujjat fragmentlari jadvali bo‘lib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$\beta = \begin{bmatrix} f_{1,1}(\Omega, \theta, \gamma) & \cdots & f_{1,m}(\Omega, \theta, \gamma) \\ \vdots & \ddots & \vdots \\ f_{n,1}(\Omega, \theta, \gamma) & \cdots & f_{n,m}(\Omega, \theta, \gamma) \end{bmatrix}, \qquad (3)$$

bunda f – hujjat fragmenti, Ω – ma’lumotlarni olish qoidasi, θ – fragment strukturasi (andoza), γ – qurish va vizualizatsiya qoidasi (algoritmi). α va β matritsalari Ω orqali o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bunda α matritsasi qatorining ayrim elementlari Ω parametrlar to‘plamining elementlaridir. Bu berilgan ma’lumotlar massivini o‘zgartirish orqali hujjatning fragmentlarini o‘zgartirish imkonini beradi. Shunday qilib, Ω parametrlar to‘plami uchun matritsaning i-qatordagi elementlarining kichik to‘plami – M_i va ma’lumotlar massivini olish qoidasi – $\Omega(M_i)$ shaklida bo‘ladi, bunda $M_i \subset P_i$, $P_i \in \{p_{i,1} \dots p_{i,I}\}$.

Bir xil strukturali fragmentlar uchun ma’lumotlar massiviga qo‘shimcha ravishda qurilish va vizualizatsiya qoidalarning parametrlari o‘zgartirilishi mumkin. Ma’lumotlar massiviga o‘xshash $\phi(y)$ parametrlar funksiyasi kiritilsa, vizualizatsiya qoidasi quyidagicha bo‘ladi: $\gamma(\phi(y))$.

Endi hujjat strukturasini ifodalsh matritsasini (4) formula bilan berishladi,

$$\begin{bmatrix} f_{1,1}(\Omega_j(M_i),\theta_g,\gamma_k(\phi(y))) & \cdots & f_{1,m}(\Omega_j(M_i),\theta_g,\gamma_k(\phi(y))) \\ \vdots & \ddots & \vdots \\ f_{n,1}(\Omega_j(M_i),\theta_g,\gamma_k(\phi(y))) & \cdots & f_{n,m}(\Omega_j(M_i),\theta_g,\gamma_k(\phi(y))) \end{bmatrix}, \quad (4)$$

bunda $i \in I$ – hujjat parametrlar matritsasining qator raqami, $g \in G$ – fragmentni taqdim etish shaklining raqami, $j \in J$ – hujjat fragmentini qurish uchun berilgan ma’lumotlarini tanlash qoidasining raqami, $k \in K$ – hujjat fragmentini vizuallashtirish qoidasi raqami. Bu (4) formula texnologiyani ishlab chiqish, ko‘plab shakllarni saqlash va amalga oshirishda uning oldingi qaralgan talablarga muvofiqligini ta’minlaydi. Natijada, hujjatlarni formallashtirish dasturiy vositasi ishlash sxemasi taklif etilib, hujjatlarni o‘qish va taqdin etish texnologiyasi ishlab chiqiladi.



6-rasm. Hujjatlarni generatsiyalash jarayonining funksional modeli

Shuningdek, ushbu bobda hujjatlarni generatsiya qilish jarayonining funsional modeli ishlab chiqildi. Bu to‘rtta asosiy bosqichdan iborat: hujjat andozaini yaratish; ma’lumotlar bazasiga so‘rovlar yaratish; andozani to‘ldirish parametrlarini o‘rnatish va andozaga muvofiq hujjatni generatsiyalash. **Andozani yaratish** bosqichida foydalanuvchi tomonidan har bir hujjat turi uchun vizual maket yaratiladi,

ma’lumotlar bazasiga so‘rovlar yaratish bosqichda yaratilgan andozani to‘ldirish uchun ma’lumotlarni tayyorlanadi, **andozani sozlash** bosqichida andoza elementlari manba jadval ma’lumotlari yoki so‘rovlardan olingan ma’lumotlar bilan taqqoslanadi va **andozaga muvofiq hujjatni generatsiyalash** bosqichida kiritilgan maxsus maydonlar foydalanuvchi tomonidan ko‘rsatilgan parametrlar va shartlarga muvofiq avtomatik to‘ldiriladi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“O‘zbek tilida ifodalangan hujjatlarni kalitli komponentalar asosida umumlashtirish”** deb nomlangan bo‘lib, unda tadqiq qilingan uslubiyatlarga, hususan kalit sozlar, NER, ATS va jadvallarni birlashtirish mexanizm va algoritmlarga tayangan holda o‘zbek tilida ifodalangan matnli elektron hujjatlarni kalit so‘zlar komponentalari asosida umumlashtirishning yangi uslubiyati, matematik asoslari bayon etiladi.

Hujjatni inson intellekti asosida umumlashtirish jarayoni misolidan ko‘rinib turibdiki, qaralayotgan masala uchun obyekt turlari va ularning nomlanishlari, predmet sohaga oid termlar (atamalar), ko‘rsatkichlarni ifodalovchi kalit so‘zlar bazasini (KSB) qurish zarur ekan. Bu KSB quyidagicha belgilanadi:

$$KSB = \{L, O, P, T, B, R, Q\}, \quad (5)$$

bu yerda:

$\boldsymbol{L} = \{l_1, l_2, \dots, l_{nl}\}$ – obyekt nomlanishlari to‘plami (Kegeyli, Nukus, …). Obyekt joylashuv manziliga ega jismoniy/virtual va mavjud tashkilot/hudud.

$\boldsymbol{O} = \{o_1, o_2, \dots, o_{no}\}$ – obyekt turlari to‘plami (tuman, mahalla, maktab …). Obyekt turi orqali hujjatdan obyekt nomi aniqlanadi;

$\boldsymbol{P} = \{p_1, p_2, p_3, \dots, p_{np}\}$ – predmet sohalar (qishloq xo‘jaligi, xalq ta’limi);

$\boldsymbol{T} = \{t_1, t_2, \dots, t_{nt}\}$ – tabiiy tilida termlar to‘plami (tadbirkor, ishsiz, qishloq, yer, kitob, o‘quvchi, fuqaro, davomat, nafaqa, suv, yoz,..);

$\boldsymbol{B} = \{b_1, b_2, \dots, b_{nb}\}$ – obyekt turlariga tegishli termlar (birikmasi) va uning sinonimlari to‘plami, buni obyekt kalit so‘zlari deyish mumkin (davomat (ishtirok etish, darsga kelish..), o‘quvchi (talaba, tolib, tinglovchi,…), o‘qituvchi (pedagog, muallim, domla, trener, …), ...);

$\boldsymbol{R} = \{r_1, r_2, \dots, r_{nr}\}$ – sonlar to‘plami (0,…, 9, bir, ikki, … o‘n, yuz, ming, million, milliard, I, V. X, C…).

$\boldsymbol{Q} = \{q_1, q_2, \dots, q_{nq}\}$ –qisqartmalar to‘plami (TATU, QDU, UzMU MTM, …)

Bu belgilanishlar KSB deb nomlanadi. KSB orqali dastlab obyekt va uning nomi aniqlanadi, keyin tanlangan predmet sohaga tegishli termlar asosida axborot birliklari chiqarib olinadi.

Hujjatdan fragmentlarni ajratib olish quyidagi funksiya orqali bajariladi:

$$\Theta\left(H_h, A_\varphi, \Psi_\varphi\right) \to X_i^{(j)}, \quad (6)$$

bunda H_h – kiruvchi to‘plamning h-hujjati, A – tanlangan andoza, Ψ – fragmentlash qoidasi, $X_i^{(j)}$ – ajratilgan (j)-fragment bloki, i-ushbu fragment turining uchrashi.

Umumiy holda axborot birliklarini chiqarib olish funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$F\left(X_i^{(j)}, \Gamma^{(j)}, FKS\right) \to E_{k,h}^{(j),r}, r = 1,2,3, \quad (7)$$

Umumiy holda hujjatni fragmentlash va undan axborot birliklarini chiqarib olish jarayoning matematik modeli quyidagicha bo‘ladi:

$$H_h \xrightarrow{A_\varphi, \Psi_\varphi} X_i^{(j)} \xrightarrow{\Gamma^{(j)}, KSB} E_{k,h}^{(j),r}, r = 1,2,3 \qquad (8)$$

bu yerda $E^{(j),1}$ – axborot birligi nomi, $E^{(j),2}$ – axborot birligi qiymati, $E^{(j),3}$ – axborot formati, k – olingan axborot birliklari soni, (j) – fragment turi, h - joriy hujjatning tartib raqami.

Axborot massivlarini umumlashtirish. endi yuqorida aniqlagan hujjatlardan olingan axborot massivlarini umumlashtirish masalasi qaraladi. (8) formuladan $E_h^{(0)}$ - joriy tahlildagi h-hujjatning sarlavha fragmenti axborot nomi va axborot birliklari boshqa φ_j $(j = 1..4)$ fragment axborot birliklarini umumlashtirishda ishtirok qiladi. Shuni inobatga olib umumlashtirilgan hisobot hujjatni (Δ) shakllantirish modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Delta = \cup_{h=1}^{nh} \cup_{j=1}^{4} \Lambda^{(j)} \left(E^0 \bowtie E_{k,h}^{(j),r} \right), \qquad (9)$$

bu yerda (j)-fragment turi, nh-tahlildagi hujjatlar soni, $\Lambda^{(j)}$–mos (j)-fragment axborot birliklarini E^0 bilan birga umumlashtirish funksiyasi.

Λ umumlashtirish bosqichida muhim ahamiyat kasb etib, u har bir fragment uchun alohida **umumlashtirish qoidalariga** ega.



7-rasm**.** ARS-Uz tizimida axborot oqimi va jarayonlar bajarilishi

Axborot birliklarini chiqarish bosqichi ARS-Uz tizimining eng muhim algoritmik bo‘g‘ini bo‘lib, bu algoritm KS va qoidalar bazasi orqali matndan KSga mos axborot birliklarini chiqaradi. Natija maxsus axborot massivlariga mos fragment turi bo‘yicha yozib boriladi. Bunda umumlashtiruvchi massivning fragment turlariga mos axborot birliklarini yozish fragment umumlashtirish qoidalari, yani (9) model orqali amalga oshiriladi. Algoritmning qisqartirilgan blok sxemasi 8-rasmda berilgan.



8- rasm**.** Hujjatlar fragmen blokidan axborot chiqarish algoritimi

Umumlashtirish bosqichida oldingi bosqichdan kelgan natijaviy jadvalli hujjat formallashtiriladi. Bunda asosan 3 ta bo‘lim ketma-ket va/yoki zarur holatda teskari qaytish amallari bajariladi: 1) avtomat ma’lumotlarni toifalash; 2) mexanik tahrirlash; 3) hujjatni generatsiyalash.

Ushbu bobda doimiy rivojlanishda bo‘lgan matnli hujjatlarni avtomatik qayta ishlash yo‘nalishlari hisoblangan KS ajratib olish, matnni umumlashtirish va nomlangan obyektni tanish uslubiyatlari tadqiq qilindi. O‘zbek tilidagi matnli hujjatlardan axborot birliklarini chiqarish va umumlashtirishning matematik modeli va tizim infratuzilmasi taklif etildi.

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi bobi **“Kalit so‘zlar asosida bir jinsli hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olish va umumlashtirish dasturiy majmuasi”** deb nomlangan bo‘lib, unda tadqiqot davomida erishilgan natijalar bo‘yicha axborot dasturiy majmua ishlab chiqiladi. Jumladan, tadqiqot ishini bajarish davomida tahlil qilingan ma’lumotlar va olingan natijalar asosida bir xil tuzulmaga ega matnli hujjatlardan kalit so‘zlar orqali muhim axborot birliklarini ajratib olish va bu ma’lumotlardan ehtiyojga ko‘ra umumlashtiruvchi hisobotlar shakillantirib berish imkonini beradigan dasturiy majmuani ishlab chiqish jarayoni va bosqichlari haqida to‘xtalib o‘tiladi.



9- rasm. Matn blokidan chiqarilgan axborot birliklarini umumlashtirish algoritmining blok sxemasi.

Tahlil uchun ma'lumotlarni kiritish jarayoni 3 ta qadamda amalga oshiriladi. Birinchi qadamda foydalanuvchining mazkur andoza uchun nom tanlashi, fayllarni ko'rsatishi, predmet sohani tanlashi va obyektlarni tanlashi talab etiladi. Tegishli ma'lumotlar kiritilgandan so'ng ikkinchi qadamga o'tiladi (10-rasm).



10-rasm. Hujjat tahlilini yaratish uchun ma'lumotlarni kiritishning ikkinchi bosqichi.

Xususan dasturiy vosita arxitekturasini loyihalash, undagi foydalanuvchilarning turlari va ularning huquqlarini belgilash, dasturiy majmua uchun ma’lumotlar bazasini loyihalash va dasturiy vosita modullarining vazifalari shuningdek o‘zaro ta’sirlashishi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

XULOSA

“Kalitli komponentlardan foydalangan holda bir jinsli hujjatlardan ma’lumotlarni ajratib olishning algoritmik va dasturiy majmuasi” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Elektron hujjat tuzilishi va fragment andozalari, kalit so‘zlar va bilimlar bazasi loyhalashtirildi. Natijada elektron hujjatlar uchun dizaynlar va shablonlar yaratish, kalit so‘zlar bilan ishlashni optimallashtirish va keng ko‘lamli ma’lumotlar bazasini tuzish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa, foydalanuvchilarga moslashuvchan va kengaytirilishi mumkin bo‘lgan tizimni taqdim etishga olib keldi.

2. Hujjatlardan toifali fragment bloklarini aniqlash va bu blokdan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlani ajratib olish jarayoni matematik modeli ishlab chiqildi. Buning natijasida, axborotni avtomatik ravishda qayta ishlash orqali vaqt tejalishi va inson xatosini kamaytirish, bu esa ayniqsa katta miqdordagi matn ma’lumotlarini qayta ishlashda bir qator imkoniyatlarni taqdim etdi.

3. O‘zbek tilida ifodalangan matnli hujjatlarni fragmentlash, fragment matnidan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtirishning qoidalar bazasi ishlab chiqildi. Buning natijasida, o‘zbek tilidagi matnli hujjatlarni qismlarga bo‘lish va umumlashtirish qoidalari bazasi, katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash va tushunishni sezilarli darajada osonlashtirib, yanada samarali muloqot qilish, bilimlarni tarqatish va umumlashtirilgan ma’lumotlar asosida qarorlar qabul qilish imkoni yaratildi;

4. Bir jinsli elektron hujjatlardan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish va umumlashtirish algoritmlari ishlab chiqildi. Asosan bu algoritmlarning samarali ishlashi tanlangan kalit so‘zlarning aniqligi, hujjatlarning o‘xshashligi va algoritmning o‘zi qanchalik murakkab ekanligiga bog‘liq ekanligi muhimdir. Natijada, bu algoritmlarni turli sohalardagi hujjatlarni tahlil qilish, ular ustida tadqiqotlar olib borish va chuqur tahlillar yaratish imkoniyatini berdi;

5. Ishlab chiqilgan algoritmlar asosida amaliy masalalarni yechishga ko‘mak beruvchi dasturiy majmuasi yaratilgan va real amaliy masalalarga tatbiq etilgan. Natijada, tashkilotga keladigan elektron hujjatlardan toifali fragment bloklarini aniqlash va bu blokdan kalit so‘zlar asosida qiymatli axborotlarni ajratib olish jarayoni avtomatlashtirilgan holda qayta ishlash imkonini berdi. Bu esa soha xodimlarini ish yuklama hajmini 15% ga qisqartirdi hamda keladigan hujjatlarga qayta ishlov berish asnosida javob qaytarish tezkorligini oshirish orqali ish samaradorligini 15% oshirishga imkon berdi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.13/05.05.2023.T.162.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НУКУССКОМ ФИЛИАЛЕ ТАШКЕНТСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

НУКУССКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ

КЕНЖАЕВ ХАМДАМ БАЗАРБАЕВИЧ

АЛГОРИТМИЧЕСКИЙ И ПРОГРАММНЫЙ КОМПЛЕКС ДЛЯ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ ИЗ ИДЕНТИЧНЫХ ДОКУМЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КЛЮЧЕВЫХ КОМПОНЕНТОВ

05.01.04 - Математическое и программное обеспечение вычислительных машин, комплексов и компьютерных сетей

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ

Нукус-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером V2023.2.PhD/T.3636

Диссертация выполнена в Нукусском филиале Ташкентского университета информационных технологий.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.tatunf.uz) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Нишанов Ахрам Хасанович** доктор технических наук, профессор
Оффициальные оппоненты:	**Джуманов Жамолжон Худайкулович** доктор технических наук, профессор
	Рахимбоев Хикмат Жуманазарович доктор философии технический наук (PhD), доцент
Ведущая организация:	**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «15» июля 2024 г. в 14[00] часов на заседании Научного совета PhD.13/05.05.2023.T.162.01 по присуждению ученых степеней при Нукусском филиале Ташкентского университета информационных технологий. (Адрес: 230100, г. Нукус, ул. А.Досназарова, 74. Тел.: (99861) 222-49-10, e-mail: tatunf@ tatunf.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный № 1). (Адрес: 230100, г. Нукус, ул. А.Досназарова, 74. Тел.: (99861) 222-49-10).

Автореферат диссертации разослан «15» июля 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 1 «12» июля 2024 года.

Б.Т.Каипбергенов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Р.И.Отениязов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

К.К.Сейтназаров
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации Во всем мире, в результате развития ИКТ и сети Интернет в мире бумажные источники информации, удовлетворяющие потребности людей, в частности такие издания, как документы, газеты и журналы, преобразовываются в электронную форму, в результате которого особое значение стал придаваться вопросам управления большими объемами и потоками информации, их обработки и предоставления пользователю. В настоящее время ведущими компаниями и учеными развитых стран, в том числе таких, как США, Англия, Южная Корея, Германия, Япония, Россия, передовыми в IT-сфере намечено внедрение в практику современных решений обработки текстов на естественном языке с использованием искусственного интеллекта, машинного обучения и средств анализа больших данных. В связи с этим особое внимание уделяется дальнейшему совершенствованию специальной системы, программных средств и алгоритмов, предназначенных для естественной языковой обработки текстов из документов однородного набора, по ключевым словам, извлечения точных данных и суммаризации документов.

Во всеми известными учеными проводятся значимые исследования связанные с процессом выявления и выделения отдельных элементов из документов, имеющих сходный формат или структуру. Приоритетными в этом направлении являются исследования, в том числе по суммаризации ценной информации из базы документов одинакового формата и структуры, и разработке алгоритмо-математических ресурсов, формирующих смысл содержания большого документа. В связи с этим актуальными считаются задачи преобразования их в единый формат и удаления ненужной информации или исправления ошибок.

В республике ведутся достаточные научные исследования и реформы связанные с поиском специальных фраз или форматов, указывающих на начало соответствующего раздела в документе, обработкой текстов на естественном языке, пониманием контекста в сложных документах, определения смысла и выявлением отношений между разными частями текста, алгоритмами, с использованием машинного распознавания для повышения их точности с течением времени особенно в сложных или разнообразных наборах данных, изучением и выявлением соответствующей информации из каждого процесса экстракции, а после извлечения данных преобразованием их в соответствующий формат, подходящий для анализа или интеграции в другие системы, такие как базы данных или средства анализа данных, а также с исследования посвященных интеграции с существующими базами данных, системами управления контентом или бизнес-процессами в целях реальной эффективности систем экстракции. В частности, в сфере цифрового формата управления и систематической обработки потока документов в органах государственного управления Республики Узбекистан обозначены решения таких задач, как “...Электронный обмен документами...

цифровизация операционных процессов...”[1] , “...информационная система для автоматизации образовательного процесса ... электронные формы...”, “... автоматизация процесса управления деятельности Министерства народного образования и его региональных подразделений...”[2]. При реализации этих задач важными являются проведение научно-практических исследований и разработка программных комплексов по обработке текстовых документов на узбекском языке, в частности по машинной суммаризации однотипных шаблонных документов и подготовке автоматических отчетов.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, указанных в законах Республики Узбекистан “Об электронном правительстве” (2015г.) и “Об обращениях физических и юридических лиц” (2017г.), Указах Президента Республики Узбекистан №УП-6079 “Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан-2030” и мерах по ее эффективной реализации” от 5 октября 2020 года, №УП-4947 “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года, №УП-6097 “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года” от 29 октября 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4996 “О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта” от 17 февраля 2021 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан №7 “Об утверждении типового положения о порядке работы с обращениями физических и юридических лиц в органах самоуправления граждан” от 5 января 2018 года и №341 “Об утверждении Типового положения о порядке работы с обращениями физических и юридических лиц в государственных органах, государственных учреждениях и организациях с государственным участием” от 7 мая 2018 года, и в других нормативно-правовых актах, связанных с данной сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнена в соответствии с IV приоритетным направлением развития науки и технологий республики “Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий”.

